

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UMAROV BAXTISHOD BAXRIDIN O'G'LI

SOMONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO SHAHRI

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi

AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Umarov Baxtishod Baxridin o‘g‘li

Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahri.....3

Умаров Бахтишод Бахридин угли

Город Бухара в период правления Саманидов.....25

Umarov Bakhtishod Bakhridin ogli

The city of Bukhara during the Samanid rule.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....54

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UMAROV BAXTISHOD BAXRIDIN O'G'LI

SOMONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO SHAHRI

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Tar1200 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

G'oyibov Bobir Sobirovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Rahimov Komiljon Rahmatovich
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Vohidov Shodmon Huseynovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "2" dek soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118 Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-29-14; faks: 65-221-26-12. E-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118 Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: 0(365) 221-29-14, faks: 365-221-26-12).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "15" noyabr dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.T. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

B.H. Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kengashi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.R. Rahimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon globallashuv jarayonining jadallashuvi sharoitida oʻrta asr shaharlarining topografiyasi va tipologik tuzilishini kompleks oʻrganish, shuningdek, ularning moddiy va nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish va undan samarali foydalanish masalalari dolzarb muammolar qatoridan joy olmoqda. Shuning uchun ham jahon miqyosida qadimiy shaharlar tarixiga boʻlgan qiziqish har qachongidan koʻra kuchaydi. Shunga qaramasdan koʻp asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini obyektiv tahlil qilish, madaniy merosni saqlab qolish masalalarini har tomonlama oʻrganish dolzarb ilmiy masala boʻlib qolmoqda.

Dunyoning koʻplab ilmiy tadqiqot markazlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanish dinamikasini belgilovchi omillar va jarayonlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish, shuningdek, ijtimoiy-maishiy madaniyatning shakllanish evolyutsiyasini, uning tarixiy asoslari hamda bugungi kundagi transformatsion jarayonlarini tizimli tadqiq etishga yoʻnaltirilgan fundamental ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shunday boʻlsa-da, oʻrta asrlar davrida Buxoro shahri tarixi, uning islom dinining tarqalishi va rivojlanishidagi oʻrni hamda shahar topografiyasi masalalari oʻz yechimini kutmoqda.

Yangi Oʻzbekistonda milliy maʼnaviyatni rivojlantirish, tarixiy merosni tiklash, manbalarni izchil oʻrganish hamda qadimiy shaharlarning turizm salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. “Buxoro koʻhna va boqiy shahar, bu yerdagi qadimiy obidalar, osori-atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlarini, oʻlmas anʼanalari asrlar osha yashab kelmoqda. Chet elliklarning, tarixchi va mutaxassislarining ularga qiziqishi doimo yuqori boʻlgan. Bundan samarali foydalanish kerak”¹. Shu nuqtayi nazardan Buxoro tarixi boʻyicha yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish, uning kam oʻrganilgan ilk oʻrta asrlar va oʻrta asrlar davri, xususan, somoniylar davridagi tarixini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda Somoniylar davrining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalariga eʼtibor berilib, Buxoro shahrining maqomi muammosi oʻz dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisidagi farmonlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi 119-son “Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning umumjahon merosi roʻyxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 10-11-mart kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi davomida soʻzlagan nutqidan. URL: <https://uza.uz/uz/posts/barcha-ezgu-ishlarimiz-khal-imiz-farovonligini-yanada-yuksal-10-03-2017>

tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-sentabrdagi 543-son "2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur davr bo'yicha o'tgan asrda rus olimlari, shuningdek, Richard Fray², Hasan Kurt³, Aydin Usta⁴ kabi mashhur tarixchilar tadqiqot olib borgan. Ammo ularning ishlarida Buxoroning poytaxtlik maqomi, shahar tipologiyasidagi o'zgarishlar, ilm-fan va ma'rifat muhitining shakllanishi, shuningdek, Buxoroning somoniylar davrida islom sivilizatsiyasi markaziga aylanishi kabi masalalar aniq, tizimli va mustaqil tadqiqot obyekti sifatida batafsil ochib berilmagan.

Tadqiqotning manbashunoslik va tarixshunosligiga doir ma'lumotlar dissertatsiyaning birinchi bobida batafsil tahlil qilingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasining Buxoro tarixi masalalari (Eng qadimgi zamonlardan hozirgacha) mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahri tarixini va shahar hayotidagi o'zgarishlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi:

Ilk o'rta asrlarda Buxoroda kechgan tarixiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish va ularning shahar ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy rivojlanishga ta'sirini o'rganish;

Buxoroning Somoniylar markaziga aylanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarni ilmiy asoslash;

Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahrining islom sivilizatsiyasi markaziga aylanishi masalalarini tarixiy-tahlil asosida bayon etish;

Buxoro shahrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, ark, registon, shahriston va rabad(rabaz) qismlaridagi o'zgarishlar, shaharning urbanistik rivojlanishini arxeologik va tarixiy manbalar asosida kompleks o'rganish, shuningdek, shaharning tipologik tuzilishini ilmiy asosda yoritib berish;

Somoniylar davri madaniy taraqqiyoti, diniy bilimlarning rivoji, yangi til (fors-tojik) va yangi fan tarmoqlarining (tarix va adabiyot) shakllanishi va rivojlanishida Buxoro shahrining tutgan o'rnini ochib berish.

² Richard N. Frye. Bukhara: The Medieval Achievement. University of Oklahoma Press, 1965. – 210 p.

³ Kurt H. Orta Asya'nin Islâmlaşma süreci: Buhârâ örneği. – Ankara: Fecr Yayınevi, 1998. – 392 s.

⁴ Usta A. Türkler ve İslamiyet İlk Müslüman Türk Devleti: Sâmânîler. – İstanbul: Yeditepe Yay. 2020. – 336 s.

Tadqiqotning obyekti sifatida Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar, shuningdek, shaharning tipologik tuzilishi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahri tarixi aks etgan manba va ilmiy adabiyotlar, shahardagi me'moriy inshootlar, ilm-fan, diniy hayot va shahar infratuzilmasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xolislik tamoyillariga tayanilib, umumfan uslublari – tizimlilik, maxsus fan uslublari – tizimli tahlil, tarixiy taqqoslash, retrospektiv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abu Abdulloh al-Jayhoni, Al-Muqaddasiy, Ibn al-Asir, Gardiziy, as-Sam'oni va Mirxond kabi mualliflarning asarlarida Somoniylar davriga oid keltirilgan ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlar asosida tizimli tahlil qilinib, ularning tarixiy mazmuni, voqealarning shahar hayotiga ta'siri, davrning ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi jihatlari, shuningdek, arab xalifaligi istilolari davridan to Somoniylar hukmronligining so'nggi bosqichigacha bo'lgan tarixiy jarayonlarda Buxoro shahrining barqaror taraqqiyoti va shahar topografiyasidagi o'zgarishlar dalillandi;

Somoniylar davrida mintaqada kechgan iqtisodiy va madaniy yuksalish, Buxoro shahrining Somoniylar boshqaruvi markaziga aylanishiga ta'sir ko'rsatgan sabab va omillar (geosiyosiy, strategik, iqtisodiy, ijtimoiy-diniy, Ismoil Somoniy fenomeni), shuningdek, shaharning islom madaniyati markazlaridan biriga aylanishi va nufuzining oshishi isbotlab berilgan;

Buxoro shahrining somoniylar davridagi tipologik tuzilishi kompleks tarzda ilmiy asosda o'rganilib, somoniy hukmdorlar tomonidan shaharda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, Jo'yi Mo'liyon manzilining joylashuv o'ri, ark, shahriston, rabad va registon qismlarining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari, yuksalish dinamikasi, shuningdek, shahardagi mavjud darvozalar, ularning IX-X asrlardagi joylashuvi va nomlanishi, shahar va uning shahriston qismi xaritasi yaratildi;

Movarounnahrda renessansning vujud kelishi va taraqqiyotida Buxoro va buxoroliklarning tutgan o'ri, somoniylar saroyida tarix va adabiyotning alohida fan sifatida shakllanish jarayoni, hukmdorlarning olimlarga ko'rsatgan homiyligi va ilm-fan rivojiga ta'siri, saroy atrofida shakllangan ilmiy muhit, diniy va dunyoviy ilmlarga bo'lgan yuqori darajadagi e'tibor, madrasa va masjidning ijtimoiy hayotdagi o'ri va ahamiyati ortganligi, kitob va kutubxonachilik sohasidagi taraqqiyot, shuningdek, fors tili (fors-tojik)ning yuksalishida Buxoro shahrining tutgan o'ri dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahri tarixi aks etgan manbalar va ilmiy adabiyotlarga ilmiy tavsif berilib, mavzuning manbashunoslik hamda tarixshunoslik asoslari yaratildi;

Ilk o'rta asrlarda Buxoroda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy

jarayonlar tahlil qilinib, shaharning somoniylar davrida islom sivilizatsiyasining yirik markazlari qatoriga qo‘shilishi, shuningdek, sulola boshqaruv markaziga aylanishiga ta’sir etgan omillar aniqlab berildi;

Somoniylar davrida Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi, hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari va ularning o‘rni tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Somoniylar boshqaruvi davrida Buxoro shahrining markazga aylanishi va shaharning tipolik tuzilishi masalalari yozma manbalar, arxeologik tadqiqot natijalari va ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili bilan asoslandi. Bundan tashqari, olingan dissertatsiya natijalarining ilmiy talqini amaliyotga joriy etilib, ularning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* shundan iboratki, somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi o‘rni yozma manbalar va arxeologik tadqiqot materiallar asosida tahlil qilingan bo‘lib, bu IX-X asrlarda Buxoro tarixini davriy izchillikda, muammoviy yondashuv asosida o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* keltirilgan materiallar va xulosalar ilk o‘rta asrlarda Buxoro shahriga oid ilmiy tadqiqot olib borishda, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi tarix yo‘nalishi talabalariga “O‘zbekiston tarixi”, “Sharq allomalari tarixi” kabi qator fanlar va o‘quv kurslaridan o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahrida kechgan o‘zgarishlarni o‘rganish yuzasidan olingan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Abu Abdulloh al-Jayhoni, Al-Muqaddasiy, Ibn al-Asir, Gardiziy, as-Sam’oni va Mirxond kabi mualliflarning asarlarida Somoniylar davriga oid keltirilgan ma’lumotlar arxeologik tadqiqotlar asosida tizimli tahlil qilinib, ularning tarixiy mazmuni, voqealarning shahar hayotiga ta’siri, davrning ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi jihatlari, shuningdek, arab xalifaligi istilolari davridan to Somoniylar hukmronligining so‘nggi bosqichigacha bo‘lgan tarixiy jarayonlarda Buxoro shahrining barqaror taraqqiyoti va shahar topografiyasidagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Real fakt” va “Muborak maskanlar” nomli turkum ko‘rsatuvlari ssenariylarini shakllantirishda foydalanildi (*O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” Davlat muassasasining 2024-yil 20-fevraldagi 02-28-272-son ma’lumotnomasi*). Natijada, Somoniylar davrida Buxoro shahrida kechgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar hamda iqtisodiy munosabatlar haqida tomoshabinlarga ilmiy dalillangan, qiziqarli va tarixiy bilimlarni oshirishga xizmat qiluvchi yangi ma’lumotlar taqdim etilgan.

Somoniylar davrida mintaqadagi kechgan iqtisodiy va madaniy yuksalish, Buxoro shahrining Somoniylar boshqaruvi markaziga aylanishiga ta’sir ko‘rsatgan

sabab va omillar (geosiyosiy, strategik, iqtisodiy, ijtimoiy-diniy, Ismoil Somoniy fenomeni), shuningdek, shaharning islom madaniyati markazlaridan biriga aylanishi va nufuzining oshishi to'g'risidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqdimot" nomli ko'rsatuvini ssenariylarini tayyorlashda keng foydalanildi (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" Davlat muassasasining 2024-yil 20-fevraldagi 02-28-272-son ma'lumotnomasi*). Natijalarning amaliyotga joriylanishi teletomoshabinlarda Buxoroning o'rta asrlar davri tarixi, Somoniylar davrida kechgan tarixiy jarayonlar bo'yicha dunyoqarashlarini boyishiga xizmat qildi.

Buxoro shahrining somoniylar davridagi tipologik tuzilishi kompleks tarzda ilmiy asosda o'rganilib, somoniy hukmdorlar tomonidan shaharda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, Jo'yi Mo'liyon manzilining joylashuv o'rni, ark, shahriston, rabad va registon qismlarining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari, yuksalish dinamikasi, shuningdek, shahardagi mavjud darvozalar, ularning IX-X asrlardagi joylashuvi va nomlanishi bo'yicha berilgan ma'lumotlar Buxoro muzey-qo'riqxonasi faoliyatida turli ko'rgazmalar qilishda hamda fond materiallarini kataloglashtirishda foydalanildi (*O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 18-iyuldagi 04-07/2762-sonli ma'lumotnomasi*). Mazkur natijalar Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi hujjatlar fondining boyishiga, shuningdek, muzeyga tashrif buyuruvchilar hamda sayyor darslarda ishtirok etuvchi talabalarning somoniylar davridagi tarixiy inshootlar haqidagi ilmiy bilimlarini boyitishga xizmat qildi.

Movarounnahrda renessansning vujudga kelishi va taraqqiyotida Buxoro va buxoroliklarning tutgan o'rni, somoniylar saroyida tarix va adabiyotning alohida fan sifatida shakllanish jarayoni, hukmdorlarning olimlarga ko'rsatgan homiyliги va ilm-fan rivojiga ta'siri, saroy atrofida shakllangan ilmiy muhit, diniy va dunyoviy ilmlarga bo'lgan yuqori darajadagi e'tibor, madrasa va masjidning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati ortganligi, kitob va kutubxonachilik sohasidagi taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlar Buxoro davlat universiteti tarix yo'nalishi talabalari uchun "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" darsligi (Buxoro: Fan va ta'lim, 2022)ning "Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini vujudga keltiruvchi mustaqil manba" deb nomlangan XIII bobida aks etgan (*Buxoro davlat universitetining 2024-yil 26-avgustda berilgan 02/4781-son ma'lumotnomasi*). Mazkur ilmiy natijalar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida o'rta asrlar Buxoro shahrining tutgan muhim o'rni, ilmiy markaz sifatidagi rolini ko'rsatib berish va talabalarning o'rta asrlar davriga oid bilimlarini oshirishga ham imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish e'lon qilingan, tadqiqotning asosiy mazmuni, xulosa va natijalari

Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 5 tasi xorij jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, shartli qisqartmalar izohi hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Buxoro shahrining Somoniylar davri manbashunosligi va tarixshunosligi”** deb nomlangan. Mazkur bobda Somoniylar hukmronligi yillarida Buxoro shahri, uning tarixiy-tipologik tuzilishi, shaharda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida ma'lumot beruvchi manbalar va ilmiy adabiyotlar alohida guruhlariga ajratilgan holda tavsif etilgan.

Somoniylar davrida markaziy shahar maqomiga ega bo'lgan Buxoro tarixini ochib berishga xizmat qiluvchi yozma manbalarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Arab tilli tarixchilar va sayyohlar tomonidan yozilgan asarlar. Ilk o'rta asrlar va bevosita somoniylar davrida Buxoro shahri tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalar qatoriga arab tilida yozilgan va o'z davrining mashhur tarixchi hamda geograflari bo'lgan al-Balazuriy⁵, Abu Abdulloh al-Jayhoni⁶, al-Istaxriy⁷, Ibn Havqal⁸, al-Muqaddasiy⁹, Abu Mansur as-Saolibiy¹⁰, as-Sam'oni¹¹ kabi mualliflarning asarlarini kiritish mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan mualliflarning asarlari birlamchi manba hisoblanib, ularda Arab xalifaligi tomonidan Buxoroning egallanishi, Buxoro shahri tarixiy-geografiyasi, topografiyasi, somoniylar davri ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy hayotida shaharning tutgan o'rni va maqomi,

⁵ Abu-l-'Abbos Aхмад ибн Йахё ал-Балозурий. Футух ал-булдон. Хуросоннинг фатх этилиши / Сўз боши, таржима, шарх, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи: Ш. С. Камолиддин. – Тошкент, 2017. – 357 б.

⁶ Abulqosim Ahmad ibn Jayhoni. Ashkol ul-Olam / Tarjimon Ali ibn Abdusalom Kotib; izoh va ko'rsatkichlar muallifi Firuz Mansuriy (fors tilida). – Mashhad: Oston Quds Razaviy nashriyoti, 1989. – 331 b.; Абу Абдулло Мухаммад бинни Ахмад ал-Жайхоний. Ашкол-ул-олам. – Бухоро, 2022. – 78 б.

⁷ Истахрий. Китоб ал-масолик ва-л-мамолик / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Р.Худойберганов. – Тошкент: Фан, 2019. – 375 б.

⁸ Ибн Хавқал. Сурат ал-ард. Ернинг сурати. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2011. – 400 б.

⁹ al-Muqaddasi, Shams ad-din Abu Abdallah Mohammed ibn Ahmed ibn abi Bekr al-Banna al-Basshari, Descriptio Imperii moslemici / Ed. M. J. de Goeje, BGA, Edition secunda. – Lugduni-Batavorum: E. J. Brill, 1906. – 497 p.

¹⁰ Абу Мансур ас-Саолибий. Китоб латоиф ал-маориф. Тадқиқ қилувчи, таржимон, изоҳ ва кўрсаткичларни тузувчи И.Абдуллаев. – Тошкент, 1987. – 132 б.

¹¹ Абу Саъд Абдулкарим ибн Мухаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб). Таржимонлар: Абдулғафур Раззоқ Бухорий, Рахимов Комилжон. – Тошкент: Hilol-nashr, 2017. – 336 б.

masjid, madrasa, bozorlarning joylashuvi, mintaqa aholisining ijtimoiy va diniy hayoti haqida muhim ma'lumotlar beriladi;

2. *Fors tilidagi manbalar.* Somoniylar hukmronligi davridan boshlab mintaqada fors tilida ham ilmiy-tarixiy asarlar yozila boshlandi. Bu asarlarning ahamiyatli jihatini fors tilidagi dastlabki ishlarning Buxoroda yaratila boshlaganligi bilan izohlasak bo'ladi. Tadqiqotda fors tilidagi manbalardan Abu Bakr Narshaxiy¹², Abu Said Abdulxay Gardiziy¹³, Nizomulmulk¹⁴, Hamidulloh Mustavfiy Qazviniy¹⁵ va boshqalarning asarlari jalb qilindi.

Yuqorida keltirilgan manbalar tavsifi somoniylar davrida Buxoro shahri tarixi va topografiyasini birlamchi manbalar asosida hali to'liq o'rganilmaganligini ko'rsatmoqda. Bu esa mazkur tadqiqotning qiymati va zaruratini taqozo etadi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi "*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tahlili: muammoning tarixshunosligi*" deb nomlanadi. Unda Somoniylar hukmronligi yillarida Buxoro shahri tarixi haqida ma'lumot beruvchi ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. O'rta asrlarda somoniylar va Buxoro shahri tarixiga oid ilmiy adabiyotlarni davriy va lokal xususiyatlaridan kelib chiqib uch guruhga ajratish mumkin:

1. *Rossiya imperiyasi va Sovet ittifoqida nashr etilgan ilmiy ishlar.* Rossiya imperiyasi va sovet tarixshunosligida O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri tarixini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda Somoniylar sulolasi hukmronligi davriga ham alohida e'tibor qaratilgan. P.I.Lerx¹⁶, V.V.Bartold¹⁷, I.I.Umnyakov¹⁸, V.A.Shishkin¹⁹, O.A.Suxareva²⁰, N.N.Negmatov²¹ kabilarning o'rta asrlar Movarounnahr tarixi, shaharlar rivojlanishi va me'moriy yodgorliklar tarixi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan asarlarini kiritish mumkin.

Buxoro shahrining somoniylar davri tarixiy-topografiyasi, tipologik tuzilishi va bunyod etilgan inshootlar bilan bog'liq muammolar bo'yicha L.I.Rempel²²,

¹² Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro Tarixi / A.Mухаммаджонов тахрири, изоҳ ва кўрсаткичлар Д.Д.Юсупова. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993. – 128 б.

¹³ Гардизи Абу Са'ид. Зайн ал-ахбар. Украшение известий. Раздел об истории Хорасана / Перевод с персидского языка А.К.Арендса. – Ташкент.: Фан, 1991. – 146 с.

¹⁴ Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳид ва Афғондил Эркинов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 240 б.

¹⁵ Mustawfi-i Qazwini. The Tarikh-I Guzida or Select History, compiled in A.H. 730 (A.D. 1453) by E.G.Browne with indices of the fac-simile text by R.Nicholson, vol. 2, Text (vol. XIV). – Leiden-London: E.J.Brill, 1913. – 554 p.

¹⁶ Лерх П.И. Монеты Бухар-худатов. Отдельный оттиск. –СПб: Типография Академии наук, 1909. – 161 с.

¹⁷ Бартольд В. В. Сочинения. Т. I. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Издательство Восточной литературы, 1963. – 763 с.

¹⁸ Умняков И. И. К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары // Сборник Туркестанского Восточного института в честь проф. Э. А. Шмидта. – Ташкент, 1923. – С. 148–157.

¹⁹ Шишкин В. А. Архитектурные памятники Бухары. – Ташкент: Изд. Комитета наук УзССР, 1936. – 100 с.;

²⁰ Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент: Наука, 1958. – 150 с.

²¹ Негматов Н. Давлати Сомониён: тоҷикон дар асрҳои IX-X. – Душанбе: Ирфон. 1989. – 304 с.

²² Ремпель Л.И. Из истории градостроительства на Востоке (материалы по планировке старой Бухары) // Искусство зодчих Узбекистана. – Ташкент: Изд-во АН УзбССР, 1962. – С. 211–266.; Shu muallif. Далекое и близкое: Бухарские записки. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. – Ташкент: Изд-во лит. и искусства им. Г. Гуляма, 1981. – 301 с.;

G.A.Pugachenkova²³, O.G.Bolshakov²⁴, J.Mirzaaxmedov²⁵, V.M.Filimonov²⁶ va boshqalarning qator ilmiy asarlaridan foydalanildi.

2. *Xorijiy ilmiy ishlar.* Somoniylar hukmronligi davri bo'yicha xorijiy tarixchi olimlar tomonidan ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ularda bizni qiziqtirgan muammo doirasida ham ayrim ma'lumotlar bayon qilinadi. Bularga g'arb olimlari R. Fray, L. Tredvell, A. Naymark²⁷, livanlik Ihsan Zunun as-Samiriy²⁸, turkiyalik H. Kurt, A. Usta²⁹ fors-tojik olimlari S. Abdullayev, A. Muxtorov, Javad Hiravi, Muhammadrizo Naji, F. V. Kohan³⁰ kabi ko'plab tarixchi olimlarining ilmiy tadqiqotlari natijalari kiradi. Olimlarning tadqiqot natijalari ishning mohiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi guruh mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilgan tadqiqotlar. Istiqlol yillarida O'zbekistonda ushbu mavzuga qisman aloqador bo'lgan qator ishlar e'lon qilindi. E. G. Nekrasova, A. Muhammadjonov, H. H. To'rayev, Sh. T. Adilov³¹ va boshqalar tomonidan O'zbekiston, xususan, Buxoro tarixining turli davrlari, ayniqsa, somoniylar davri tarixi bilan bog'liq bir qancha tadqiqot natijalarini o'zida aks ettirgan ishlarni kiritish mumkin.

²³ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Бухара. – Москва: Изд-во Академии архитектуры СССР, 1949. – 66 с.; Shu mualliflar. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1958. – 292 с.

²⁴ Большаков О. Г. Заметки по исторической топографии долины Зеравшана в IX–X вв. // Краткие сообщения Института истории материальной культуры. – 1956. – Вып. 61. – С. 17–23.; Большаков О. Г. Бухара времени Ибн Сины // Письменные памятники и проблемы культуры народов Востока. XV годичная научная сессия ЛО ИВ АН СССР. Ч. III: Доклады и сообщения о творчестве Ибн Сины. – Москва. 1981. – С.6-24.

²⁵ Мирзаахмедов Д. К изучению исторической топографии Бухары района мавзолея Саманидов // ИМКУ. 1984. – Вып. 19. – С. 221–237.

²⁶ Филимонов В. М. Регистан-Майдан – древнейший градообразующий элемент Бухары // Архитектура и строительство Узбекистана. – 1986. – № 6. – С. 11–14.

²⁷ Frye R. N. The Samanids // The Cambridge History of Iran. – Vol. 4. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – P. 136–161.; Treadwell W. L. The Samanids: The First Islamic Dynasty of Central Asia // Early Islamic Iran. The Idea of Iran / Ed. by Edmund Herzig, Sarah Stewart. – London; New York: I. B. Tauris, 2011. – P. 3–15.; Naymark A. The size of Samanid Bukhara: a note on settlement patterns in early Islamic Mawarannahr // Bukhara – The Myth and the Architecture. – Cambridge. 1999. – P. 39–60.

²⁸ Ihsan Zunun as-Samiri. Somoniylar davrida ilmiy hayot (Hijriy uchinchi va to'rtinchi asrlarda Xuroson va Movarounnahrning madaniy tarixi) (arab tilida) – Beyrut: Dar at-Tali'a nashriyoti, 2001. – 238 b.

²⁹ Kurt H. Orta Asya'nin İslâmlaşma süreci: Buhârâ örneği. – Ankara: Fecr Yayınevi, 1998. – 392 s.; Kurt H. Devlet kurma sürecinde Samanoğulları // Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. 2003. – T. 44, № 2. – S. 109–129.; Usta A. Türklerin İslamlaşma Serüveni: Sâ mânîler. – İstanbul: Yeditepe Yay., 2013. – 648 s.; Shu muallif. Türkler ve İslamiyet: İlk Müslüman Türk Devleti – Sâ mânîler. – İstanbul: Yeditepe Yay., 2020. – 336 s.

³⁰ Абдуллоев С. Амир Исмоили Сомонӣ. – Хучанд: Нашриёти ба номи Раҳим Ҷалил, 1998. – 402 с.; Мухторов А. Сомониён: замон ва макон. – Душанбе: Сурушан, 1999. – 288 с.; Javad Hiravi. Somoniylar davrida Eron (Somoniylar tarixining boshidan Nasr II hukmronligigacha) (forscha). – Mashhad. 1992. – 362 b.; Muhammad Rizo Naji. Somoniylar hududida islom tarixi va sivilizatsiyasi. (forscha) – Tehron. 1378/1999. – 736 b. Kohan Ф. В. Роль книги и библиотеки в истории культурной традиции государства Саманидов: автореф. дис. канд. ист. наук. – Душанбе, 2013. – 22 с.

³¹ Некрасова Е.Г. Границы древнего Шахристана и старый хисар Бухары // Центральная Азия. Источники, история, культура. Конференция посвященной 80-летию Елены А. Давидович и Б.А. Литвинского. – Москва. 2003. – С. 102–104.; Shu muallif. Бухара: три столетия из истории архитектуры благословенного города // Вестник Международного института центральноазиатских исследований. 2023. – Вып. 35. – С. 113–129.; Мухаммаджонов А. Р. Бухоро шаҳри – 2500 ёшда (Археологик лавҳалар ва тарих). – Тошкент. 1998. – 54 б.; То'rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. – 320 b.; O'zbekiston tarixi. X jild. Buxoro tarixi. Mualliflar: H. To'rayev, B. Mirzaqulov. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 632 b.; Адылов Ш. Т. Нумиджат, Навакмитан, Байканд, Рамитан (Из истории древних столиц западного Согда) // Археология Узбекистана. – 2011. – № 1 (2). – С. 62–81.; Shu muallif. Легендарный Джуй-и Мулиён // Согдийский сборник. Вып. 7 / Отв. ред. Ш. С. Камолитдин. – Saarbrücken: LAP, 2020. – С. 85–96.

Manbashunos Sh. Kamoliddin somoniylar davri bo'yicha yirik mutaxassis hisoblanib, olim tadqiqotlari natijalaridan foydalanildi³². Shuningdek, Buxoroning somoniylar davridagi yuksalishi bilan bog'liq ilmiy izlanish natijalaridan K.Rahimov, H. M. Mamadaliyev, Z. I. Zinatullayev, B. T. Jurayev va yana bir qancha tadqiqotchilar ishlari ham dissertatsiya jalb qilindi³³. Ushbu tadqiqotlarda Buxoroning "Qubbat ul-islom" deb atalishi, somoniylar davri madaniy taraqqiyoti, tarix ilmi rivoji bilan bog'liq muhim ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahri va uning tipologik tuzilishi masalasi hozirga qadar yaxlit tarzda kompleks ravishda o'rganilmaganligidan dalolat bermoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Buxoroning Somoniylar poytaxtiga aylantirilishi va uning omillari**" deb nomlanadi. Uning "*Somoniylargacha bo'lgan davrda Buxoroda kechgan iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy jarayonlar*" deb nomlangan birinchi paragrafida ilk o'rta asrlarda (V–IX asrlarda) Buxoro shahrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tadqiq etilgan.

Buxoro xitoy manbalarida An, Ansi, Nyumi, Puxo, Buxo, hind manbalarida Vixara, arab manbalarida Numijkat, Bumichkat, Bumiskat, Madinat as-Sufriya tarzida uchraydi hamda u odatda butun vohaga nisbatan ishlatilgan. Vohaning markaziy shahri esa Numijkat toponimi bilan tilga olinadi. V-VI asrlarda shaharning umumiy maydoni 21 gektar bo'lgan bo'lsa, VII-VIII asrlarga kelib 30-35 gektarga yetgan³⁴. Bu holat, eng avvalo, aholi sonining ortishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning faollashuvi bilan bog'liqdir.

Islomgacha bo'lgan davrda Buxoroni turk xoqonlariga bo'ysunuvchi buxorxudot unvonini olgan mahalliy hukmdorlar boshqargan. G'. G'oyibov tadqiqotlarida 9 ta, O. Smirnova ilmiy izlanishlarida esa 12 ta buxorxudot hukmdor nomi tilga olinadi³⁵. Bu davr Buxoro tarixida markaziy hokimiyat bilan mahalliy

³² Камолитдин Ш.С. Саманиды: Из истории государственности Узбекистана в IX – X вв. – Saarbrücken: LAP, 2012. – 460 с.; Shu muallif. Исмоил ибн Аҳмад ас-Сомоний. – Riga: Scholars-Press, 2017. – 89 б.; Shamsiddin Kamoliddin, Timur Kocaoglu. O'zbek davlatchiligi tarixidan: Somoniylar sulolasi (IX – X asrlar). – Toshkent: Fan ziyosi, 2024. – 156 b.

³³ Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII–XI асрлар). – Тошкент: Akademnashr, 2020. – 396 б.; Shu muallif. Бухорони "Қуббат ул-ислом" этган аллома. – Тошкент: Splendid Idea, 2021. – 256 б.; Мамадалиев Ҳ. М. Тарихий манбаларда IX – XII асрларда Ўрта Осиёда этник ҳолат масалалари (араб тилидаги манбалар маълумотлари асосида): тарих фанлари номзодлиги учун ёзган диссертацияси. – Тошкент, 2010. – 172 б.; Mamadaliyev H. Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida tarix fani holati: asosiy yo'nalishlar, asarlar va ularning ahamiyati // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro. 2023, № 12. – B.27-31.; Zinatullayev Z.I. VIII–XII asrlarda islomning Markaziy Osiyoga yoyilishi va boshqaruv tizimining o'zgarishi: tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent. 2022. – 55 б.; Зинатуллаев З. Марказий Осиёдаги биринчи Ренессанс даврида илм-фанга ҳомийлик масалалари // «Инновацион тадқиқотларда Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2024. – 24 апрель. – Б. 114–119.; Juraev B. T. Somoniylar davrida ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikr taraqqiyoti: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Buxoro, 2025. – 50 b.

³⁴ Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи: энг қадимги даврлардан XIX аср ўрталаригача. I жилд. – Тошкент.: Янги аср авлоди. 2014. – Б.228; Шишкин В.А. Архитектурные памятники Бухары. – Ташкент: Изд.во Комитета наук УзССР, 1936. – С.11.

³⁵ Гоибов Г. Ранние походы арабов в Среднюю Азию (644-704 гг.). – Душанбе.: Дониш, 1989. – С.43.; Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет (Бронза). – Москва.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1981. – С. 426–428.

hukmdorlar o'rtasidagi munosabatlarning shakllana boshlagan bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu tajriba keyinchalik Arab xalifaligi istilosidan keyingi siyosiy tizimlarda ham o'z aksini topadi.

Buxorxudotlar boshqaruvi davrida xalqaro savdoning rivojlanib borishi bilan mahalliy hukmdorlar tomonidan zarb qilingan tanga pullar muomalaga kiritilgan³⁶. Bu tangalar G'arbiy Sug'd tarixidagi mahalliy hukmdorlar tomonidan chiqarilgan dastlabki tangalardan hisoblanadi. Shahar ijtimoiy hayotida o'ziga xos jihatlar kuzatilib, islomgacha bo'lgan davrda ayollarning erkinligi, ularning mustaqil siyosiy faoliyat yurita olganligi adabiyotlarda qayd etiladi. Bu Buxoro jamiyatining rivojlangan madaniy-huquqiy tafakkur darajasini aks ettirib, Turon iqtisodiy-ijtimoiy hayotida Buxoro shahrining o'rni yuqori bo'lganligini ilmiy asoslaydi.

VIII asr boshlarida Buxoro Arab xalifaligi tarkibiga kiritilib, Xuroson noibligiga bo'ysundirildi³⁷. Mahalliy aholiga solingan soliqlar, jabr-zulm natijasida 747–749-yillardagi Abu Muslim, 751-yilgi Sharik ibn Shayx al-Mahriy, 776–783-yillardagi Muqanna qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi. Natijada iqtisodiy ahvol yomonlashib, savdo va hunarmandchilik deyarli yarim asr sekinlashishiga olib kelgan.

VIII asr oxiridan boshlab G'itrifiy tangalarning zarb etilishi Buxoro vohasida iqtisodiy faollikning oshishiga va natijada shaharda yangi inshootlar qurilishiga olib keldi. Jumladan, 783–832-yillarda Kanpirak mudofaa devori, 794–795-yillarda ark (kuhandiz) va shahriston o'rtasida yangi jom'e masjidi bunyod etiladi³⁸. XI asr boshlaridan Buxoro madaniy muhitiga katta ta'sir ko'rsatgan Abu Havs Kabir Buxoriy zamonida ham bir qancha masjid va madrasalar bunyod ettirilgan. Shu davrdan shahar hududi kengayib, islomiy shahar qiyofasiga kira boshlagan.

Bobning *“Buxoroning poytaxt darajasiga ko'tarilishi va uning omillari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida Buxoro shahrining somoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonning bosh shahriga aylanishi, iqtisodiy va siyosiy hayotda tutgan o'rni ochib berilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili Buxoroning Somoniylar boshqaruvi markaziga aylanishiga ta'sir ko'rsatgan quyidagi omillarni ko'rsatishga imkon beradi:

1. Geosiyosiy va strategik omil. Buxoro Zarafshon vohasi markazida joylashgan bo'lib, Ummaviylar va Abbosiylar davrida ma'muriy jihatdan Buxoro Movarounnarhga emas balki Xurosonga bo'ysungan³⁹. Bu shaharning geosiyosiy o'rni bilan bog'liq bo'lib, xalifalik uchun Movarounnahr shaharlariga darvoza vazifasini bajarib kelgan. Ismoil Somoniy tomonidan 874-yil Buxoroning egallanishi bilan Amudaryodan musulmon sharqining eng oxirigacha bo'lgan yerlarni idora qilish somoniylar tasarrufiga o'tadi.

³⁶ Zeimal E.V. The political history of Transoxiana // The Cambridge History of Iran. Ed. E. Yarshater. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 235.

³⁷ Беляев Е.А. Арабы, ислам и Арабские Халифат в раннее средневековье. – Москва: Наука. 1966. – С.160.

³⁸ Мухамедов Х. «Стена Канпирак». Из истории древних народных оборонительных сооружений в Узбекистане // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1961. № 1. – С.43.

³⁹ Richard N. Frye. Bukhara: The Medieval Achievement. University of Oklahoma Press, 1965. – P.30.

Ismoil Somoniy (892–907) rasman hokimiyat tepasiga kelgach, davlat boshqaruv markazini Buxoroga ko‘chirib, Movarounnahrni aynan shu shahardan turib boshqara boshladi. IX asr oxirlarida Buxoro vohasi janubda Xuroson, g‘arbda Xorazm, shimolda ko‘chmanchi turk qabilalarining yerlari, sharqda esa Samarqand bilan chegaradosh bo‘lgan. Ushbu strategik geografik joylashuv Buxoroga nafaqat mintaqaning iqtisodiy va siyosiy- harbiy markazi sifatida, balki madaniy jihatdan ham muhim tayanch nuqtasi sifatida shakllanish imkoniyatini bergan.

2. *Iqtisodiy omil.* VIII-IX asrlar davomida shaharda yuz bergan iqtisodiy tushish va ko‘tarilishlarga qaramasdan bozor, tovar-pul munosabatlari va savdo-sotiq ma‘lum darajada rivojlandi hamda Buxoro mintaqaning iqtisodiy jihatdan muhim shaharlaridan biriga aylandi. Musulmon o‘lkalari uchun qimmatli bo‘lgan “zandanachi” matosi, shuningdek, Buxoro arki yaqinidagi “Bayt ut-tiroz” da ishlab chiqarilgan matolar xalifalikning markaziy shaharlarida juda qadrlil bo‘lgan⁴⁰. Ismoil Somoniy shahar xavfsizligini taminlanib, iqtisodiy taraqqiyotiga yo‘l ochgan.

Iqtisodiy o‘shish shahar tashqi qiyofasining o‘zgarishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sof kumush tangalarning zarb qilinishi, Sharqiy Yevropa va Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarining kengayishiga yo‘l ochadi. Shuningdek, somoniylar kumushlari xalqaro miqyosda ekspert mahsulotiga aylanib, shimoliy xalqlar (vikinglar) uchun muomalada bo‘lgan⁴¹. Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan Buxoroning xalqaro savdo markaziga aylanishi, islom madaniyati hamda turli mahsulotlarning dunyo bo‘ylab tarqalishida muhim rol o‘ynashi uning poytaxtlik maqomiga ko‘tarilishiga muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

3. *Ijtimoiy-diniy omil.* Bu davrda Buxoro Xuroson va Movarounnahrning eng gavjum shahriga aylandi. Aholini harakatlantiruvchi asosiy kuch din hisoblanib, Buxoro mintaqaning diniy markazi sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Movarounnahrda hanafiylik mazhabi birinchilardan bo‘lib tarqalgan hudud va uni yoyilishida muhim o‘rin tutgan olimlar buxorodan yetishib chiqqan. Sunniy ulamolar va hanafiy mazhabi olimlarining ko‘pligi, Ismoil Somoniy aynan ularning qo‘llab-quvvatlashi bilan Buxoroni idora etgani, shuningdek, shaharda vujudga kelgan ilmiy muhit ta‘sirida shahar mavqeyi nihoyatda ko‘tarilgan.

4. *Ismoil Somoniy fenomeni.* Mintaqaning diniy markazi sifatida yirik nufuzga ega bo‘lgan shaharni boshqarish Ismoil ibn Ahmad uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Hanafiy ulamolar bilan hamfikrlik, ilm ahllariga homiylik va bunyodkorlikni yoqtirgan Ismoil Somoniy Buxoroda keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirgan. Xususan, shaharni tashqi dushmanlardan himoya qilib, ularni Buxoro chegarasidan uzoqlashtiradi hamda tinch va barqaror hayotni tiklaydi. Masjid, madrasa, kutubxona va maktabxonalar bunyod ettirib, shaharda yuksak ilmiy va

⁴⁰ Мухамеджанов А. Результаты археологических исследований на территории города Бухары // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: “Фан”, 1984. № 1. – С.43.

⁴¹ Michailidis M. Samanid Silver and Trade Along the Fur Route // Medieval Encounters. – Brill. – 2012. – Vol. 18, no. 4/5. – P. 315-338.

ma'rifiy muhitni vujudga keltiradi. Fikrimizcha, hukmronligining dastlabki yillaridan Buxoroni xalifalik sharqidagi yirik markazga aylantirishga intilgan Ismoil Somoniy keyinchalik o'z shaxsiy va siyosiy tashabbusi bilan shaharni poytaxtga aylantirgan.

Yuqoridagi omillar bilan birga harbiy va madaniy taraqqiyot omillari ham Buxoroning boshqaruv markaziga aylanishiga yo'l ochgan bo'lsa-da, tahlillar asosida aytish mumkinki, ijtimoiy-diniy va hukmdor tashabbusi shaharni poytaxtlik maqomiga ko'tarilishiga asosiy o'rin egallagan.

Bobning uchinchi paragrafi "*Buxoro shahrining islom sivilizatsiyasi markazlaridan biriga aylanishi*" deb nomlanib, unda Buxoroga islom dinining kirib kelishidan, somoniylar davrida islom dunyosi madaniyatining yirik markazlaridan biriga aylanishi masalasi tahlil qilingan.

Shaharning islom sivilizatsiyasi markazlari qatoriga qo'shilishi va muhim diniy-ma'rifiy ahamiyat kasb etishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda ushbu tarixiy davr uchga bo'lib, tahlil qilindi.

Birinchi davr – Buxoroga islomning kirib kelishi va yoyilishi (taxminan 673–750). Buxoroga qo'shin tortgan ilk arab sarkardasi Ubaydulloh ibn Ziyod yurishlari davrida shaharga yangi –islom dini kirib kela boshlagan. Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoroning egallanishi, masjid, namozgohlarning qurilishi va turli tadbirlarning amalga oshirishi⁴² bilan aholini yoppasiga islomga o'tkazish va davat qilish ishlari amalga oshirilgan.

VIII asr birinchi yarmida o'lkadagi musulmonlar soni 40 mingga yaqin bo'lib, ularning katta qismi Buxoroda istiqomat qilgan⁴³. Xalifa Umar ibn Abdullaziz va Xuroson noibi Ashros davrida aholining islomni qabul qiluvchilar soni sezilarli darajada ortgan. Buxoroning musulmon bo'lgan aholisi shahardagi arablar bilan bir xil mavqeyga ko'tarilgani va soliq to'lovchilar sonining keskin kamayishi bilan Ashros aholini musulmon deb tan olinish uchun xatna qilinish, farz amallarni ado etish hamda Qur'onning ayrim suralarini yodlash kabi shartlarni qo'ygan⁴⁴. Bu Buxoro ahosining katta qismi islomni qabul qilib, uning shartlarini to'liq bajargani va natijada zodagon arablar mahalliy musulmonlarni o'zlari bilan teng maqomda ko'rishdan nozori bo'lganligi haqida aniq tasavvurlarni beradi. Bu bosqichning eng muhim jihati shahar Movarounnahrning yirik musulmonlar yashaydigan shahri va diniy markaziga aylanganligi hisoblanadi.

Ikkinchi davr – Abbosiylar davridagi Buxoro shahri (750–874). Abbosiylar hukmronligining dastlabki davrlaridan boshlab Buxoro hududi yirik islomiy markaz sifatida shakllana boshladi. Bu davrda Iso ibn Muso G'unjor va Abu Hafs al-Kabir kabi buxorolik olimlar yetishib chiqdi. Fiqhiy an'analarni shakllantirish va hanafiylik mazhabi Buxoroga kirib kelishi shahar ijtimoiy va diniy hayotida katta ta'sir ko'rsatdi.

⁴² Kurt H. Orta Asya'nin Islamlasma sureci: Buhara ornegi. – Ankara: Fecr Yayınevi, 1998. – S.232.

⁴³ Ibnu'l-Esir. İslam Tarihi: El-Kamil Fi't-Tarih. Beşinci Cilt / Çeviren: Yunus Apaydın. Yunus Apaydın. – İstanbul: Türkiyat Matbaacılık ve Neşriyat, 1986. – S. 39–56.

⁴⁴ Kitapçı Z. Orta Asya'da İslâmiyetin Yayılışı ve Türkler. – Konya: Yedi Kubbe Yayınları, 2004. – S.124.

Abu Hafs al-Kabir va uning shogirdlari faoliyati natijasida Buxoro yirik ilmiy-ma'naviy markazga aylanishga erishdi va tarixiy manbalarda "Qubbat al-Islom" (Islom gumbazi) sifatida tilga olinadigan maqomni egalladi. Ushbu jarayon, Buxoroda hadis, fiqh va tasavvuf kabi sohalarining jadal rivojlanishiga yo'l ochdi. Ayniqsa, hadis ilmi Imom Buxoriy faoliyati davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilib, butun islom olami miqyosida tan olingan mustahkam ilmiy an'anaga aylandi. Tadqiqotlarda Buxoroda bu davrda 600 dan ortiq muhaddislar faoliyat yuritganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi⁴⁵. Musulmon aholisining barcha qatlamlari orasida mazhabiy qarashlar va fiqhiy bilimlar rivoj topib endilikda shahar nafaqat Movarounnahr, balki Xurosonning muhim shaharlari bilan diniy-ma'rifiy markazlik borasida raqobat qila boshlagan.

Uchinchi davri – Somoniylar davridagi Buxoroning yuksalishi (874–992). Somoniylar Buxorosi "shon-shuhrat makoni, davrning buyuk kishilari yig'iladigan joy" hisoblangan. Movarounnahrda hanafiylik mazhabining keng yoyilishi hamda hukmdorlarning ilm-fan taraqqiyotiga ko'rsatgan homiyligi natijasida Buxoroda dastlabki ilmiy muassasa – *boshlang'ich maktab* (kuttob, maktab)lar shakllana boshlagan. Dastlabki maktablar Ismoil Somoniy davridan mavjud bo'lib, ularga yerlar vaqf qilib berilgan.

Narshaxiy, As-Sam'oniylar asarlari va yangi tadqiqotlar tahlili somoniylar davrida Buxoro shahrida Abu Hafs Kabir, Ismoil Somoniy, Forjak, G'aribiya, Kalobodiy, Abu Bakr ibn al-Fadl, Timchai Xon, Imom ul-muslimin kabi 10 ga yaqin madrasa faoliyat yuritgan.

Islom sivilizatsiyasi rivojida dastlabki kutubxonalar Buxoroda ham vujudga kelgan. Olimlar Buxorodagi dastlabki kutubxonani Ismoil Somoniy nomi bilan bog'lashadi⁴⁶. Nuh ibn Mansurning "Savvon al-hikmat" ("Hikmatlar xazinasini") nomli kutubxonasidan Ibn Sino foydalanganligi manbalarda tilga olinadi. Bu davrda kutubxonalar bilan birga Buxoroda kitob do'konlari bo'lganligi, shahar aholisining ilm olishga va dunyo olimlari asarlaridan xabardor bo'lishiga qiziqishlari yuqori bo'lganligi bilan baholanadi.

Somoniylar davrida Buxoroda masjid, maktabxona, madrasa va kutubxonalar sonining ortishi, hukmdor va amaldorlarning ilm-fan taraqqiyotiga homiyligi, adolatli siyosat, olim-u ulamolarning salmog'i va yuqori ilmiy-madaniy muhit sabab bu davrda shahar xalifalikning eng yirik markazlari qatoriga qo'shiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahridagi o'zgarishlar**" deb nomlanadi. Ushbu bobda somoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr, xususan, Buxoro shahrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, shaharsozlik va me'morchilikdagi o'zgarishlar, shaharning tipologik tuzilishi, shaharda ilm-fan va madaniyat rivoji uchun yaratilgan imkoniyatlar,

⁴⁵ Ahmedov S.A. Abu Barakat Nasafiyning Movarounnahr hanafiy fiqhi rivojiga qo'shgan hissasi ("al-Vofiy" asari asosida): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. –B.12.

⁴⁶ Гуломшоев С. Книга и книжный дела в эпохи Саманидов // Вестник Педагогического университета. – Душанбе. 2022. – №. 6-1 (101). – С. 289–294.

shuningdek, bevosita Buxoroda ijod qilgan olim-u ulamolar faoliyati tahlil qilingan.

Bobning birinchi paragrafi “*Somoniylar davrida Buxoro shahrining rivojlanishi va tarixiy topografiyasi*” deb nomlangan. Ushbu paragrafda Buxoro shahrining tipologik tuzilishi va somoniy hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari ochib berilgan.

Oʻrta asrlarda islom Sharqining deyarli barcha shaharlari asosan uch qismdan iborat boʻlgan: ichki qalʼa (ark, kuhandiz, hisor), ichki shahar (shahriston yoki al-madina al-doxila) va tashqi shahar (rabad yoki al-madina al-xoriya). Buxoro ham shu tipologik xususiyatni oʻziga jamlagan shaharlardan biri sanaladi.

1. Ark maydoni hukmdor qarorgohi joylashgan hudud boʻlib, VIII – X asrlarda 3-4 gektarni tashkil qilgan⁴⁷. Arkning shahristonga chiqadigan Darvozayi Goʻriyon (Gʻuriyon) va registonga chiqadigan Darvozayi Registon nomli ikki darvozasi boʻlgan⁴⁸. Darvozalarni uzun koʻcha bogʻlab turgan va arkni ikki qismga ajratgan. Somoniylar davrida Arkda xazina, qoʻriqchilik xizmati, kutubxona va hukmdor qarorgohi faoliyat yuritadigan barcha tuzilmalar, shuningdek, qamoqxona joylashgan.

2. Shaharning markazi yaʼni *shahriston* (*arabchada* – “*madina*”) qismi sezilarli balandlikda joylashib, koʻzga oson tashlanib turgan. Bu davrda Buxoro shahristoni 30-35 gektarni tashkil etgan. VIII-IX asrlarda shahristonning umumiy koʻrinishi shakllangan boʻlib, barcha tomonlari taxminan 575-600 metrni tashkil qilgan⁴⁹. Shahristonda asosan hunarmand va savdogarlar guzarlari, masjidlar, karvonsaroylar va turar-joylar boʻlgan⁵⁰. Shahristonni oʻrab olgan mudofaa devorida Bozor, Banu Saʼd, Banu Asad, Kuhandiz, Haq-roh, Temir va Nav deb ataluvchi 7 ta darvoza boʻlib⁵¹, tadqiqot doirasida ularning joylashuvi yozma va arxeologik materiallar asosida tahlil qilinib, xaritasi yaratildi.

X asr davomida Buxoro shahristonida yuz bergan yirik yongʻinlar shahar tarixiy-topografiyasiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Shahriston oʻzining geografik hududini saqlab qolgan boʻlsa-da, ayrim saroylar shaharning registon va rabad qismiga koʻchgan. Yongʻinlar sabab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rabad qismiga koʻchgan.

3. Ilk oʻrta asrlarda *rabad* lar aholining katta qismi toʻplanadigan, faol ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar kechadigan maydon boʻlganligi sababli uning taraqqiyoti bozorlar bilan chambarchas boʻliq boʻlgan. Shuningdek, karvonsaroy, hammom va masjidlar bozor yaqinida joylashgan. IX asr oxiri – X asr boshlarida

⁴⁷ Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (Кремль) Бухары в конце XIX – начале XX вв. – Душанбе: Дониш, 1972. – С. 17.; Некрасова Е.Г. К истории сложения стен арка Бухары (новые археологические данные) // Из истории культурного наследия Бухары. – Ташкент: Узбекистан, 1990. – С.15–27.

⁴⁸ Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро Тарихи. – Тошкент.: «Шарқ баёзи», 1993. – Б. 29.

